

**ХОРАЗМ МАЪМУН  
АКАДЕМИЯСИ  
АХБОРОТНОМАСИ**



---

**ВЕСТНИК ХОРЕЗМСКОЙ АКАДЕМИИ МАЪМУНА  
BULLETIN OF KHOREZM ACADEMY MAMUN**

---

**2021-8**

---

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР  
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ  
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН  
АКАДЕМИЯСИ  
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**2021-8**  
**Вестник Хорезмской академии Маъмуна**  
**Издается с 2006 года**

**Хива-2021**

**Бош муҳаррир:**

*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.*

**Бош муҳаррир ўринбосари:**

*Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.*

**Таҳрир хайати:**

*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.*

*Абдуллаев Баҳром Исмоилович, ф-м.ф.д.*

*Абдуллаев Рашидан Бабажонови, тиб.ф.д., проф.*

*Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.*

*Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.*

*Бабадҷанов Хушнот, ф.ф.н., проф.*

*Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.*

*Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.*

*Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.*

*Дўсчанов Бахтиёр, тиб.ф.д., проф.*

*Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.*

*Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.*

*Кадиров Шавкат Юлдашевич, қ/х.ф.н.*

*Қутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.*

*Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.*

*Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.*

*Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.*

*Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.*

*Рашидов Негмурод Элмуродович, б.ф.н., доц.*

*Рўзибоев Рашид Юсупович, тиб.ф.д., проф.*

*Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.*

*Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.*

*Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.*

*Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.*

*Сотипов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.*

*Тожибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д., академик*

*Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.*

*Чўпонов Отаназар Отожонови, ф.ф.д., доц.*

*Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.*

*Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.*

*Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.*

*Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.*

*Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.*

*Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.*

*Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.*

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№5 (79), Хоразм Маъмун академияси, 2021 й. – 322 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

## МУНДАРИЖА АРХИТЕКТУРА

<b>Setmamatov M.B., Madirimov X.A., Imamov Q.T.</b> Qadimgi Xorazm madaniy yodgorliklari. Mizdaxkan majmuasi tahlili .....	6
<b>Setmamatov M.B., Baydjanov A.Q., Madirimov X.A.</b> Qadimgi Xorazm. Mizdaxkan majmuasidagi xalifa Erejep maqbarasi .....	9
<b>БИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b>	
<b>Bekchanov M.X., Bekchanov N.X.</b> Xorazm vohasi “Faunani saqlash” MCHJ hududidagi qattiq qanotlilar (Coleoptera) turkumi ayrim vakillarining uchrashi va bioekologik xususiyatlari .....	13
<b>Doniyorov B.N.</b> Buxoro viloyatida ko’k kaptar ( <i>Columba livia neglecta</i> Hume, 1873) ning biologiyasiga doir materiallar .....	17
<b>Абдуллаев Ў.Р., Жуманазаров Ҳ.Ў., Искандаров А.И., Абдуллаев И.И.</b> Хоразм воҳаси ҳақиқий арилар (Hymenoptera: Vespidae) фаунасининг ареологик таҳлили .....	22
<b>Абдурасулова С., Аvezметова И., Пазилов А., Базарова Р.</b> Ўзбекистонда адвентив - <i>Deroceras reticulatum</i> (Gastropodaterrestria Nuda) турининг тарқалиши ва хўжалик аҳамияти .....	25
<b>Азимов И.Т.</b> Курама ва Чотқол тоғ тизмасидаги кенг баргли дарахт ва бутазорларнинг ҳозирги экологик ҳолати .....	29
<b>Болтаев К.С., Жамалова Ф.А., Мамарасулова Н.И.</b> Экологическое группирование нематодофауны тугайных растений .....	33
<b>Ортиков Э.А., Махмуджанов Д.И., Азизова Ф.А.</b> Ўзбекистонда тарқалган <i>Limniris</i> ва <i>Iris</i> ост туркуми ( <i>Iris</i> L.) турларининг қисқача морфологик ва биогеографик таҳлили .....	37
<b>Ражабов Т.Ф.</b> Зирабулоқ-Зиёвуддин тоғлари ўсимликлар қопламининг флористик ва ценотик хусусиятлари .....	39
<b>Рахмонов Р.Р., Райимов А.Р., Рахимов Ж.Р., Туева Г.У.</b> Бухоро вилоятида овладиган сут эмизувчиларнинг таксономик таҳлили .....	44
<b>Рўзметов Р.С., Матякубов З.Ш., Абдуллаев И.И., Ибрагимов Ш.Б., Олланазаров С.Б.</b> Биноларда термитларнинг тарқалишига таъсир қилувчи омилар .....	47
<b>ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК ФАНЛАРИ</b>	
<b>Artikova H.T., Salimova H.X.</b> Buxoro viloyati sug’oriladigan tuproqlarning meliorativ holati va unga ta’sir etuvchi omillar .....	51
<b>Khudoyberdiyev F.Sh., Vobojonov S.U., Mukhamadov K.M.</b> Current situation of pasture use in Bukhara region .....	54
<b>Мурадуллаев А.М., Рахмонкулов С., Исламов А.М., Абдурасулов Ш.Э.</b> Ғўза нав ва тизмалари тола чиқишига юқори ҳароратнинг таъсири .....	56
<b>Намазов Ш.Э., Матёкубов С.К.</b> Интрогрессив ғўза тизмалари иштирокида чатиштириб олинган F <sub>1</sub> -F <sub>4</sub> дурагайларида тола узунлигининг ирсийланиши ва ўзгарувчанлиги .....	61
<b>Намазов Ш.Э., Матёкубов С.К.</b> Интрогрессив ғўза тизмаларида эртапишарликнинг ўзгарувчанлиги .....	63
<b>Рахмонов Ш.Т.</b> Экономико-географическое особенности сельского хозяйства северного Таджикистана в условиях трансформируемой экономики .....	66
<b>Розиқов Ж.М.</b> Мева-сабзавотчилик кластерларини бошқаришни ташкилий механизмини такомиллаштириш .....	70
<b>Худайбергенова Н.Б., Реймов Н.Б., Реймов О.Н.</b> Орол бўйида сув танқислиги шароитида дехқончиликни юритиш .....	72
<b>Эргашев О.Р.</b> Ғўза шакллариининг бир неча авлод ўсимликларида хўжалик белгилари кўрсаткичларини намён бўлишини ўрганиш .....	75
<b>ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ</b>	
<b>Abdullaev A., Rakhimova M., Obidova M., Shoalimova D.</b> The impact of Covid-19 to the tourism industry mainly to the hotel Sphere in Uzbekistan .....	79
<b>Ashurbaev O.A., Akabirova A.A., Mirfayazov M.M.</b> The role of integrated marketing communications on the example of restaurant «Brasserie on the park» .....	82
<b>Kasimov A., Kasimov A., Ergasheva N., Karimova S., Aripov A.</b> Hospitality or tourism? .....	86
<b>Абдубоситова Б., Бахрамова Ш.</b> Маркетинговое исследование по улучшению услуг Ташкентского зоопарка .....	93
<b>Алиева Э.А.</b> Оценка инновационного потенциала предприятия на основе стоимостного подхода .....	96
<b>Ашрапова М.Х., Курбонова З.К., Умаров М.Х.</b> Коммуникации, продвижение и бренд в сельском туризме .....	99
<b>Ашурбаев О., Абдусаидов С., Хасанов Р.</b> Анализ общепита. Исследования кофеен и ее целевой аудитории .....	104

КИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ

UO'T:631,4

**BUXORO VILOYATI SUG'ORILADIGAN TUPROQLARNING MELIORATIV HOLATI  
VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR***H.T.Artikova, prof., DSc, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro  
H.X.Salimova, mustaqil izlanuvchi, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro*

**Annotasiya.** Maqolada Buxoro viloyati sug'oriladigan tuproqlarining meliorativ holati, tuproqlarning paydo bo'lishi va rivojlanish sharoitlari, sho'rlanishning turi, sho'rlanishni oldini olish maqsadida qollaniladigan agrotexnik va meliorativ tadbirlar kompleksini ta'riflash ma'lumot keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** sug'oriladigan tuproqlar, meliorativ holat, shorlanish turi, rel'yef, agrotexnik tadbir, sizot suvi, gipsli qatlam, sho'r yuvish.

**Аннотация.** В данной статье приводятся данные о мелиоративное состояние орошаемых почв, о образование и развитие почв, тип засоленные почв, применяемые агротехнические приемы с целью уменьшение засоленные почвы в Бухарском области.

**Ключевые слова:** орошаемые почвы, мелиоративное состояние, тип засоленные, рельеф, агротехнические мероприятия, грунтовые воды, гипсовые составы, промывка засоленных почв

**Abstract.** The article provides information on the reclamation of irrigated soils in Bukhara region, the conditions of formation and development of soils, the type of salinity, a set of agrotechnical and meliorative measures used to prevent salinization.

**Keywords:** irrigated soils, reclamation, type of salinity, relief, agronomik activity, groundwater, gypsum layer, saline leaching.

Mamlakatimiz rivojlanishining yuqori bosqichiga o'tgan va dehqonchilikda jadal texnologiyalar ishlab chiqarishga joriy qilinayotgan hozirgi kunda tuproqlardan samarali foydalanish masalalari dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. Sug'oriladigan tuproqlarni asrash, agrotexnik, agromeliorativ va boshqa tadbirlarni qo'llash orqali meliorativ va ekologik holatni sog'lomlashtirish, yer resurslaridan samarali foydalanish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, uning unumdorligiga zarar yetkazuvchi har qanday salbiy jarayonlarni, jumladan, tuproq sho'rlanishining oldini olish, keltirib chiqargan oqibatlarini bartaraf etish bugungi kunning ustivor vazifalaridan bo'lib, katta ahamiyatga ega.

Respublikada dehqonchilik qilinayotgan yerlarning unumdorligini saqlash, oshirish, muhofaza qilish asosida uning meliorativ holatini bilish, hisobga olish va bashorat qilish tuproqlar unumdorligini oshirishning garovi hisoblanadi. Sug'oriladigan tuproqlar meliorativ holatini yaxshilashda, avvalambor, tuproqlarning kelib chiqish qonuniyatlarini, ularni geologik-geomorfologik, gidrogeologik va ekologik holati bo'yicha to'la tasavvurga ega bo'lishi kerak, chunki tuproqlar har bir xossa-xususiyatlarining bir-biriga aloqadiligini, ularning ta'sir doirasi va tuproq qatlamlarida o'zgarish jarayonlarini o'rganish asosida, kelgusida mazkur tuproqlar sug'orish ta'sirida qanday meliorativ o'zgarishlarga uchrashini bashorat qilish mumkin, ular orqali sug'orish suvlari sifati, yerosti suvlari sathi, minerallasganlik darajasi hamda ularning o'zgarish amplitudasi anaiqlanadi.

Buxoro viloyati tekislik yerlardan iborat, shimoldan janubga tomon balandlik sathi pasayib boradi. Viloyat hududlari organik tuzilishi va rel'efi, iqlim sharoiti va tuproq-o'simlik dunyosiga ko'ra bir-biridan keskin farq qilmaydi. Hududlardagi to'lqinsimon keng tekisliklar qadimgi to'rtlamchi davrning turli murakkab yotqiziqlaridan tashkil topgan. Hududlarning cho'l mintaqasida cho'l otloqi va o'floqi cho'l tuproqlar tarqalgan bo'lib, ularning chuqur qatlamlarida to'rtlamchi davr cho'kindisi, chirimdili yotqiziqlar bilan qoplangan.

Viloyat hududi murakkab organik, geomorfologik-litologik, tuproq-iqlim sharoitlari o'ta murakkab gidrogeologik holatni keltirib chiqargan, bu holat yer usti va yer osti suvlari rejimi hamda balansi ko'rsatkichlarida o'z aksini topgan.

Viloyatda tabiiy va sun'iy kam zovurlashgan tekislik qismi asosiy maydonlarida yerlarni yuqori me'yorlarda sug'orish va boshqa bir qator omillar sizot suvlarining yer yuzasiga ko'tarilishiga imkon yaratmoqda, bu holat o'z navbatida, tuproqda tuz to'planish va qayta sho'rlanish jarayonlarini keltirib chiqarmoqda. Yer osti suvlari sathining davriy ravishda tebranib turishi yil fasllari bo'yicha o'zgarib, hududlarda murakkab gidrogeologik jarayonni keltirib chiqaradi. Viloyatning shimoliy hududlarida

yer osti suvlarining sathi 2-3 m va undan ortiq chuqurlikda kuzatilsa, tekislik qismining asosiy maydonlarida 1,5-2,0 m atrofida kuzatiladi va Zarafshon daryosining 1-qayir usti terrasasida 0,5-1,0 m ni tashkil etadi. Ayniqsa, tekislikning botiq, pastqamlik yerlarida yer osti suvlari oqimi deyarli ta'minlanmaganligi natijasida suvda oson eruvchi tuzlar miqdor ortib, tuproqlar va sizot suvlaridagi dastlabki xlorid-sulfatli sho'rlanish tipi xloridli sho'rlanish tipiga aylanib bormoqda.

Sizot suvlarining mineralizasiya darajasi turli qismlarida turlicha ko'rsatkichlarda, shimoliy tekisliklarida 1-2 g/l atrofida kuzatilsa, hududning o'rta qismlarida 2-3 g/l, quyu pastqam yerlarda 3-5 g/l va undan ortiq miqdorni tashkil etadi. Jumladan, hudud yerlarida sizot suvlarining o'rta mineralizatsiya darajasi 1,5-2 g/l ko'rsatkichiga teng.

Sug'oriladigan yerlarda sizot suvlarining yer yuzasiga yaqinlashishi natijasida evolyutsion tarzda gidromorf (o'tloqi) tuproqlar maydoni kengayib, sho'rlanish jarayoni kuchayib bormoqda. Ushbu holatlarni oldini olish va salbiy jarayonlarni to'xtatish muammosi asosiy dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Viloyat hududi organik davrlarda yotqizilgan turli jinslardan iborat bo'lib, tuproq hosil qiluvchi ona jinslari kam (kuchsiz) allyuvial jinslardan tashkil topgan. Hududning asosiy qismida tuproq hosil qiluvchi ona jinslar usti qumloqli va qumli qatlamlari bo'lgan qumoqlar allyuvial yotqizilarning qum aralashgan qatlamlari yotadi.

Viloyat sug'oriladigan tuproqlarining sho'rlanishi va ikkilamchi sho'rlanishiga ta'sir etuvchi omillarning asosiysi muntazam sug'orish ishlarini olib borilishi va yer osti sizot suvlarining harakati hisoblanadi. Aksariyat hollarda sug'orishga me'yordan ortiq suv sarflanadi, sizot suvlarning harakati boshqarilmaydi, agarda sug'orish jarayonida tuproq tipi, uning mexanik tarkibi va boshqa xossalriga bo'g'liq holda suv sarflansa hamda yer osti sizot suvlarini boshqarish tizimli yo'lga qo'yilsa hozirgidek tuproqlarning sho'rlanishi tumanlar kesimida keng mashtabda uchramaydi.

1-jadval

Buxoro viloyati sug'oriladigan tuproqlarining sho'rlanish holati va tavsifi

№	Tumanlar nomi	Sug'oriladigan yer maydoni, ga	Sho'rlangan yerlar		O'rta, kuchli va juda kichli sho'rlangan yerlar		
					jami sug'oriladigan maydonlarga nisbatan		jami sho'rlangan maydonlarga nisbatan
			ga	%	ga	%	%
1	Buxoro	22860,9	22690,7	99,3	6690,4	29,3	29,5
2	Vobkent	20182,0	14644,8	72,6	3373,3	16,7	23,0
3	Jondor	28070,8	28017,3	99,8	17436,1	62,1	62,2
4	G'ijduvon	20032,0	13367,7	66,7	3326,7	16,6	24,9
5	Kogon	16845,0	11839,2	70,3	4140,1	24,6	35,0
6	Olot	17218,0	13233,1	76,9	8754,4	50,8	66,2
7	Qorovulbozor	15280,0	11308,6	74,0	3676,9	24,1	32,5
8	Qorako'l	19462,7	19105,7	98,2	7767,2	39,9	40,7
9	Peshku	18685,0	14124,3	75,6	5849,1	31,3	41,4
10	Romitan	22948,0	22948,0	100	9106,5	39,7	39,7
11	Shofirkon	23054,8	20754,3	90,0	2732,4	11,9	13,2
12	Buxoro shahri	1759,1	733,2	41,7	47,8	2,7	6,5
Jami		226398,3	192766,9	85,1	72901	32,2	37,8

Sho'r yuvish samaradorligiga tuproq (mexanik tarkibi, suv-fizik xossasi, sho'rlanish darajasi, sho'rlanish tipi), gidrogeologik (sizot suvlari chuqurligi va oqib ketish sharoiti), iqlim (yog'ingarchilik miqdori, havoning harorati) yerning zovurlashtirilishi va agrotexnik sharoitlariga bog'liq bo'ladi [4,5,6].

Mexanik tarkibi yengil tuproqlarda tuzlar kam suv sarflanganda ham tez yuviladi. Aksincha mexanik tarkibi o'g'ir, zichlashgan, tuproq tarkibida suv o'tkazmaydigan gipsli yoki karbonatli qatlamlar bo'lganda tuzlar juda kam va uzoq muddatda yuviladi.

Mexanik tarkibi yengil tuproqlarga qaraganda, mexanik tarkibi og'ir, zich tuproqlarda tuz kam va qiyin yuviladi. Tuproqning tagida qum qatlam joylashganda, sho'r yuvish osonlashadi, zich soz qatlam joylashganda esa qiyinlashadi.

Tuproq gips yoki gips qatlamlari bo'lgan yoki haydalma tagi zichlashgan tuproqlarda sho'r yuvish juda sekinlashadi. Bunday qatlam bo'lgan tuproqlar maxsus yumshatgich qurollar bilan yumshatilsa, sho'r yuvish samaradorligi ancha oshadi.

Tarkibida qumoq, yengil va o'rta qumoq ko'p bo'lgan donador uvoqli tuproq va grunlar kam suv sarf qilgan holda jida tez yuvilib shorsizlantiriladi.

Tuproqda katta-katta yoriqlar, o'pqnlar, g'ovaklar ko'p bo'lganda u yaxshi yuvilmaydi, chunki bunday yerlarda suv shu yoriqlar, o'pqnlar, g'ovaklar orqali shimilib ketadi [1,2].

Sho'r yuvish samaradorligi tuproqning agregat holati va uning namligiga ham bog'liq bo'ladi. Nam tuproqqa qaraganda quruq tuproqlardan tuz kamroq yuviladi. Tuproq agregatlari qanchalik mayda bo'lsa, tuz ham shuncha oson yuviladi.

Suvning sho'r yuvish samaradorligi tuproqning sho'rlanish darajasiga ham bog'liq bo'ladi.

Tuproqda tuz qanshalik ko'p bo'lsa, uni yuvish ham shunchalik qiyinlasadi.

Sho'r yuvish samaradorligi tuproqdagi tuzlarning tarkibiga ham bog'liq. Tuproq tarkibida xloridlar ko'p bo'lsa, ular oson yuviladi, chunki xloridli tuzlar suvda oson eriydi.

Sulfatli sho'rlanish tiplarida tuzlar xloridli sho'rlanish tuproqlarga nisbatan kamroq yuviladi. Chunki sulfatlar suvda kam eruvchan, ayniqsa past haroratda kam harakatchan.

Sizot suvi sathi 1,5-3,0 m joylashganda mexanik tarkibi og'ir bo'lgan tuproqlarning sho'rsizlanish jarayoni ham juda sust bo'ladi. Bung sababi, sizot suv sathi yuza joylashganda tuproqning erkin sig'imi juda kichik bo'lib, unga juda kam suv sig'adi, sizot suv oqimining tezligi esa juda sekin bo'ladi. Bunday sharoitda sho'r yuvish ham ancha qiyinlashadi, chunki tuproq kapilyar namlik bilan kuchli to'yingan bo'ladi. Sizot suv sathi yuza joylashgan yerlarni sug'orish natijasida bir sug'orishdan ikkinchi sug'orishgacha bo'lgan davrda va sug'orishdan keyin ham tuproq qayta sho'rlanib qoladi. Ayniqsa, yer chuqur sho'rsizlantirilmaganda shor yuvish davrida sizot suv sathi sekin pasaytirilganda tuproq qaytadan juda tez sho'rlanadi.

Sho'r yuvish samaradorligi yerning zovurlashtirish darajasiga ham bog'liq bo'ladi. Sho'ri yuviladigan maydon qanchalik ko'p zovurlashtirilgan bo'lsa, sho'r yuvish ta'sirida tuproq shunchalik yaxshi sho'rsizlanadi. Zovurlashtirilgan sharoitda zovurlashtirilmagan sharoitga qaraganda sho'r yuvish me'yori bir xilda bo'lishi yoki kam suv sarflanishi mumkin, lekin tuproqning chuqur qatlamlari ham yaxshi sho'rsizlanadi.

Kam sho'rlangan yengil mexanik tarkibli tuproqlarda joriy sho'r yuvish erta bahorda (mart), o'rtacha va kuchli sho'rlangan, mexanik tarkibi o'g'ir tuproqlarda esa oktyabr, dekabr, yanvar va fevral oylarida o'tkazish maqsadga muvofiq. Kuz-qish fasllarida sho'r yuvilganda umumiy sho'r yuvish me'yorlarining 2/3 qismi kuchli sovuq tushgunga qadar, qolgan 1/3 qismi bahor faslida bajariladi [3,6,7].

Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishda, birinchi navbatda, meliorativ tadbirlarga muhtoj tuproqlarni to'g'ri tanlash muhim hisoblanadi, bu masalaga quyidagi ilmiy-amaliy tomonlardan majmuaviy yondashish zarur.

1. Sizot suvlarining ko'tarilishi va u bilan bog'liq ikkilamchi sho'rlanish jarayonlarining oldini olish uchun sug'orish suvlaridan me'yorida foydalanish, kanallar sug'orish tarmoqlari va latok tizimlarini texnik qayta jihozlash va sifatli ta'mirlash, ekinlarni sug'orishda tuproq-iqlim sharoitlari, ekinlar turi, vegetasiya (o'sish) davri, suvga talabchanligi, sizot suvlarining chiqurligi va boshqa omillarni hisobga olgan holda, sug'orish muddatlari, soni va me'yorlarinin to'g'ri belgilash, sug'orish rejimlariga qat'iy rioya qilish;

2. Sho'r yuvishda tuproqlarning sho'rlanish darajasi, mexanik tarkibi, suv o'tkazuvchanligi (suv-fizik xossalari) hamda ildiz tarqaladigan qatlamdagi (0-1 m) tuzlar miqdori va zahiralari hisobga olinishi zarur. Sho'r yuvish uchun suv me'yorlari mexanik tarkibiga qarab turlicha sarflanadi. Tuproq mexanik tarkibiga ko'ra, yengil qatlamli tuproqlarda o'rtacha 3000-3500 m<sup>3</sup>/ga, ortacha sho'rlangan yerlarda 2-3 marta suv bostirish orqali 3500-5000 m<sup>3</sup>/ga, kuchli sho'rlangan yerlarda 3 marta suv bostirish orqali 4000-5000 m<sup>3</sup>/ga, juda kuchli sho'rlangan turli mexanik tarkibdagi tuproqlarda marzalar (cheklar) ga 3-4 marta suv bostirish orqali 5000-6500 m<sup>3</sup>/ga hamda kuchli va juda kuchli sho'rlangan o'g'ir mexanik tarkibli tuproqlarda 3-4 marta suv bostirish orqali 6000-7500 m<sup>3</sup>/ga me'yorlarida sho'ri yuviladi. Sho'r yuvishdan keying tuproqdagi tuzlar miqdori xlor ioni 0,01 % gacha va quruq qoldiq miqdorini 0,4-0,6 % gacha kamaytirish;

3. Mavsum davomida to'plangan tuzlarni tuproqning ildiz qatlamida yo'qotish faqat sho'r yuvish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ayrim holatlarda qadimdan sug'oriladigan yerlarda bunga yuqori normalardagi sug'orish suvlarini berish orqali erishiladi. Agar sho'rlangan hududlarda sug'orish suvlari miqdori kamaytirilsa, unda o'simliklar kerakli namlikni sizot suvlari zahiralardan oladi. O'simliklar tomonidan sizot suvlarni iste'mol qilish me'yorlari ularning joylashish chuqurligi, minerallashtirish darajasi va sug'orish suvlarining miqdoriy ko'rsatkichlariga bog'liq bo'ladi. Sug'orish suvlari me'yorlari qancha yuqori bo'lsa o'simliklar sizot suvlarini shuncha kam iste'mol qiladi, mavsum davomida tuproqning ildiz qatlamida tuzlar kam to'planadi;

4. Tuproq sho'rlanishini sodir etuvchi ko'plab omillar ichida yer osti grunt suvlarining "kritik chuqurligi" va "kritik minerlaizatsiyasi" tushunchalariga alohida e'tibor qaratish zarur. Quruq va jazirama issiq iqlimli sug'oriladigan yerlari tuproq yuzasidan bug'lanishning atmosfera yog'inlaridan bir necha o'n barobar ko'p bo'lishi sharoitda, sho'rlanish jarayoni sodir bo'lishi

muqarrar holat bo'lib, asosiy meliorativ tadbirlar ana shu salbiy jarayon oldini olishga, uning o'simliklarga ko'rsatadigan ta'sirini kamaytirishga yo'naltirish lozim.

5. Ayrim sugoriladigan yerlarda keng tarqalgan, g'ozha hosildorligi 12-15 sentnerdan oshmaydigan, meliorasiyalash va qayta o'zlashtirish davri 6-8 yilni tashkil etadigan, qiyin meliorasiyalanuvchi, gipsli qatlamlar yer yuzasiga (0-50 sm) yaqin joylashgan, sho'rlangan, murakkb agrotehnik va meliorativ tadbirlar kompleksini talab etuvchi unumdorligi va mahsuldorligi past yerlarga mahalliy (organik) o'g'itlar solish (30-40 n/ga), chuqur yumshatish (60-70 sm), sho'rini yuvish, keying 1-2 yil ichida "o'zlashtiruvchi" ekinlar ekish, siderat o'simliklar yetishtirish va uni "ko'k massa" holida shudgor ostiga ko'mish tavsiya etiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Фафурова Л.А., Абуллаева С.А., Намозов Х.К. Мелиоратив тупроқшунослик. Тошкент. "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси" Тошкент, 2003. б. 45-55
2. Тожиёв У., Намозов Х., Нафетинов Ш., Умаров К. Ўзбекистон тупроқлари "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси". Тошкент, 2004 й. б.67-75
3. Юнусов Р., Икромов Л., Умаров К. Бухоро вилоятида суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш чора-тадбирлари. "Ўзбекистон тупроқшунослар ва агрокимёгарлар жамиятининг IV қурилтойи материаллари". Тошкент, 2005 й. б.172-73
4. Артикова Ҳ.Т., Каримов Э.Қ., Назарова С.М. Салимова Ҳ.Ҳ. Бухоро воҳаси шўрланган тупроқлари ва уларнинг ҳолатини яхшилаш. "Хоразм Маъмун Академияси ахборотномаси". Журнал. №3/2017 (сентябр) б.7-10.
5. Артикова Ҳ.Т., Юнусов Р. "Тупроқ унумдорлигини ошириш, сақлаш, муҳофазалаш ва қайта тиклашдаги муаммолар ва ечимлар". Республика илмий-амалий анжуман.-Бухоро, 2018 йил 5-6 апрель, б.252.
6. Ўзбекистон суғориладиган ерларининг мелиоратив ҳолати ва уларни яхшилаш ҳолати. Ўзбекистон Республикаси ер ресурслари, геодезия, картография ва давлат кадастри давлат қўмитаси. Илмий тасиянома. Тошкент, 2018 й. 189-202 б.
7. Намозов Ҳ.Қ., Амонов О.С., Нафетдинов Ш.Ш., Ҳ.Ҳ.Салимова. Бухоро воҳаси суғориладиган ерларининг тупроқ-мелоратив тавсифи. "Хоразм Маъмун Академияси ахборотномаси". Журнал. №8 (65)/2020. б.235-241

UDC: 631/635

#### CURRENT SITUATION OF PASTURE USE IN BUKHARA REGION

*F.Sh. Khudoyberdiyev, teacher, Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers Bukhara Branch, Bukhara*

*S.U. Bobojonov, student, Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers Bukhara Branch, Bukhara*

*K.M. Mukhamadov, student, Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers Bukhara Branch, Bukhara*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro viloyatida yaylovlar degradatsiyasidan foydalanish, yaxshilash va oldini olish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.*

*Kalit so'zlar: ratsional, resurslar, yaylov, geobotanika, differentsial, suv resurslari, mahsulotlar*

*Аннотация. В данной статье представлены предложения и рекомендации по использованию, улучшению и предотвращению деградации пастбищ в Бухарской области.*

*Ключевые слова: рациональное, ресурсы, пастбище, геоботаника, дифференциал, водные ресурсы, продукты*

*Abstract. This article provides suggestions and recommendations on the use, improvement and prevention of pasture degradation in the Bukhara region.*

*Keywords: rational, resources, pasture, geobotanica, differential, water resources, products*

**Introduction.** Limited land and water resources, population growth and industrial development in our country are leading to a growing demand for meat and meat products. This is the main task today, the development of modern advanced technologies, high yields from existing pastures and hayfields, as well as efficient and rational use.

The total area of land within the administrative-territorial boundaries of the Republic is 44896.9 thousand hectares, of which 21010.1 thousand hectares or 46% are pastures and hayfields. These pastures and hayfields are the main fodder base for livestock development and are an important natural resource for meeting the population's demand for livestock products such as meat, milk, wool and leather. Therefore, it is necessary to develop a science-based action plan to study the natural pastures and hayfields of the country, the flora growing here and increase the efficiency of their use.